

**YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARDAN
FOYDALANISHNING USTUVOR JIHATLARI**

Narziyeva Farangiz Nodirovna

UNIVERSITY OF MANAGEMENT AND FUTURE TECHNOLOGIES

universiteti pedagogika-psixologiya fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. *Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumiy ta'lim tizimida ta'limni amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi amalga oshirilmoqda. Uning maqsadlari jinsi, irqi, madaniyati, ijtimoiy millati, dini, individual imkoniyati va qobiliyati farqlar sabab ijtimoiy segregatsiya oldini olish uchun emas. Inklyuziv ta'lim mohiyati bilim va bilim hali jamiyatda etarli emas. "Inklyuziv "va" integrallashgan " terminlari ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi.*

Kalit so'zlar: *Kolim shaxs, vatan, axloqiy tarbiya, umumiy ta'lim*

KIRISH

Yosh avlodni komillikka yetaklovchi eng katta kuch –bu kitob va hayotiy saboqlardir. Vatanga sadoqat, do'stlikka ishonch, oilaga mehr –muhabbat, kattalarga hurmatda kichiklarga izzatda bo'lish tuyg'usini shakllantirish milliy qadriyatlarimizni asl ko'rinishidir. nsonga faqat dunyoda yuz berayotgan voqelik haqida, odob -va axloq qoidalari, mehr va sadoqat tushunchalari haqida bilim berishning o'zi uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun yetarli bo'lib qolmaydi. Unda iroda qudrati, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, atrof muhitga, mehnatga, kasbga, ilmga, qalban va ruhan o'zga insonlarga mehrli va oqibatli bo'lish tuyg'usini uyg'otishga, dilida ulug' maqsadlar tug'ilishiga va atrofida yuz berayotgan hodisalarga o'z munosabatini bildirga olishiga erishishimiz lozim. Yosh avlodni



shu xislatlar bilan voyaga yetishlari uchun esa turli yo‘llar: kattalarni o‘git va nasihatlarini tinglash, undan to‘g‘ri xulosa chiqara olish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali; turli vositalar bilan va eng asosiysi yosh avlod tarbiyasiga samimiy yondashish va tinimsiz izlanishlar natijasida erishish mumkin. Dunyoda har bir xalqning asrlar, zamonlar osha yashab kelayotgan milliy qadriyatlari bor. Tarbiya inson umrining oxirigacha davom etadigan jarayon bo‘lib (inson umrining oxirigacha o‘rganadi, degan naql asosida tarbiyalanib), doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib, komillikka intilib yashaydi. Oilada axloqiy tarbiya. Bola tarbiyasini ona qornidan boshlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu fikrni bir qator Sharq mutafakkirlari ham tahkidlab o‘tishgan. Bolani tarbiyalash uchun, avvalo ota-onaning o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi kerak. Faqatgina ham jismonan, ham mahnan sog‘lom otaonadan sog‘lom farzand dunyoga keladi. «Sog‘lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo sog‘lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat shu bilan birga ruhi-fikri sog‘lom, imon-ehtiqodi butun, bilimli, ma’naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman», deb takidlaganlar. Farzand tug‘ilgan kunidan boshlab dastlab oila muhitida tarbiyalanadi. Bu davrda bolani to‘g‘ri ovqatlantirish, to‘g‘ri parvarish qilish juda muhim. Bir yoshgacha bo‘lgan davrda bola o‘ziga yaqin kishilarni ko‘rganda xursand bo‘ladi, rangdor o‘yinchoqlarni xush ko‘radi. Bu davrda bolani alla, ma’noli erkalashlar, chiroyli o‘yinchoqlar orqali tarbiyalab borish lozim. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar esa turli o‘yinchoqlarni o‘ynay boshlaydilar, asta-sekin nutqi rivojlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o‘yin orqali bir-birlari bilan aloqa bog‘laydilar, tasavvur, fikrlash jarayoni shakllanadi. Ota-ona yoki tarbiyachilarning bolalarni sevishi, ularning xatti-harakatiga ziyraklik va mehribonlik bilan munosabatda bo‘lishi, bolaning sog‘lom o‘sishiga, odob-axloqli bo‘lishiga olib keladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida axloqiy tarbiya. Maktabgacha bo‘lgan ta’lim muassasasidagi davr bola tarbiyasidagi eng muhim davr hisoblanadi. Chunki, bu davrda paydo bo‘lgan taassurotlar izi inson xotirasida umrbod saqlanib qoladi. Bu davr bolaning aqliy va jismoniy jihatdan tez o‘sishi, dunyoni bilishga intilishi, atrof1muhitga o‘z munosabatini bildirish istagi kuchayib borayotgan davrdir. Boshlang‘ich ta’limda



axloqiy tarbiya. Boshlang'ich ta'limda bola hayotida yangi, qiziqarli va muhim davr boshlanadi. Chunki, bola maktabga kelgach yangi muhit, yangi tartib-qoida, yangi talablarga duch keladi. Bu davrda bolalar hali o'yin faoliyatini to'liq tark etmaganligini inobatga olib, o'tiladigan dars mashg'ulotlarini qiziqarli qilib olib borish lozim. Bu davrga kelib bolaga tarbiyaviy tahsir yo'llari bir muncha aniq va tizimli ravishda bo'lib qoladi. Chunki endi xususan odobnoma darslari o'tila boshlaydi, bundan tashqari boshqa fanlarda ham muntazam ravishda axloqiy tarbiya berib boriladi turli to'garaklarni uyushtirish ham o'zining ijobiy natijalarini beradi. Oliy va O'rta umumiy ta'limda axloqiy tarbiya. Oliy va O'rta maktab davriga kelib o'quvchi o'rganadigan fanlar ham asta-sekinlik bilan murakkablasha boradi, shunga ko'ra talaba va o'quvchining fikrlashi va dunyoqarashi ham kengayib boradi. Bu davrda talaba va o'quvchilarga o'zaro odob-axloqqa doir maqollar va hadis namunalaridan ko'proq aytish orqali musobaqa uyushtirish hamda ushbu maqol va hidislarga o'zlari ham amal qilishlarini tarbiyalash mumkin. Endi talaba va o'quvchilar burch, vijdon, nomus, adolat, ezgulik kabi axloqiy tushunchalarning mahnisini tushunib yetadilar. Oliy o'quv yurtlarida axloqiy tarbiya. Oliy ta'limda yoshlar endi biror mutaxassislikni tanlagan holda, o'zining mustaqil fikri, dunyoqarashi, intellektual qiziqishiga ega bo'ladilar. Shu sababli bu davrda bo'lajak mutaxassislarni axloqiy jihatdan tarbiyalash muhim. Chunki bu davrda yosh o'zining madaniy-ma'naviy saviyasini oshirishga intiladi, o'z ustida qunt bilan ishlaydi, radio, televidenie, Internet va barcha informatsion vositalardan unumli foydalanadi, turli asarlar bilan tanishadi. Bu esa yoshlarni axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun yordam beradi. Ta'limdan keyingi faoliyatda axloqiy tarbiya. Yosh uzoq muddatli va tizimiy ta'lim natijasida mutaxassis sifatida shakllandi. Endi u nazariy jihatdan egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llab yosh avlodga ta'lim-tarbiya beradi, uning o'zi boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy ruhda tarbiyalay boshlaydi. Uzluksiz ravishda uzoq muddatli olib borilgan ta'lim-tarbiya samarasi mana endi ko'zga tashlanadi. Jamiyat taraqqiyoti, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan vijdoni pok, iymoni butun, sofdil, vatan'arvar, xalqsevar, mard, har tomonlama sog'lom, intellektual salohiyatli, bir so'z bilan



aytganda sogʻlom avlodni tarbiyalash davr talabi. Bu ishni amalga oshirish esa barchamizning Vatan oldidagi muqaddas burchimizdir. Sharq mamlakatlarida farzandni barkamol inson etib tarbiya qilish eng muhim vazifa hisoblanadi. Tarbiyada diniy taʼlimotlardan, hadislardan, badiiy asarlardan, xalq ogʻzaki ijodidan foydalanish maqsadga muvofiq. Kitob mutoala qilish yordamida oʻsib kelayotgan bola odamiylik, sadoqat, rahm –shafqat, mehr –muruvvat kabi ezgu fazilatlarni oʻzida shakllantiradi. Sobiq ittifoq mafkurasi inqirozga uchraganidan keyin yangi jamiyatni mafkuraviy, maʼnaviy, mahrifiy asoslash, xususan, tarbiyaviy ishlarning metodologiyasi boʻlmish milliy istiqlol gʻoyasini ishlab chiqish eng muhim vazifalardan biri boʻlib Milliy qadriyatlarni yoshlari ongi va qalbiga singdirish usullari toʻgʻrisida fikr bildirganda shuni alohida qayd qilmoq kerakki, avvalo mahmuriy yoʻl va zoʻrlik usuliga ehtiyotkor boʻlish talab qilindi. mustaqil Oʻzbekistonda maʼnaviy-mahrifiy sohada olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning bosh tamoyillaridan biri hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, gʻoyaviy dunyoqarash, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zudlik bilan hal qilinadigan ish emas, gʻoyaviy dunyoqarashni shakllantirish, yoshlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish uchun tarbiyaviy ishning mavjud barcha usullari, shakllari, vositalaridan oʻz oʻrnida samarali foydalanish umumiy maqsadlarmizni amalga oshirishda muhim oʻrin egallaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). Oʻquvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni oʻqitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Хайдаров, С. (2023). Педагогик faoliyatda oʻqituvchi oʻzida kompetentlik sifatlarini shakllantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
3. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.



4. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
5. Хайдаров С. (2025). Oilalalarda farzand tarbiyasiga ruhiy taʼsir etkazish. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
6. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
7. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yoʻllari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
8. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissinii tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.